



IJTIMOIIY TARMOQDAN TA‘SIR TUSHUNCHASI VA DESTRUKTIV G‘OYALARNING MAZMUNMOHIYATI

Abdurahmonov Abrorbek Abdumansur o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Hozrgi globallashuv va axborot texnologiyalari davrida xalqning madaniyati va manaviyatini xavfsizligini ta‘minlash asosiy masalalardan biri bo‘lib turibdi. Ushbu muammoni hal qilish uchun esa ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish va undagi ma‘lumotlarni analiz qilib asosga ega bo‘lgan, to‘g‘ri malumot ko‘rsatilgan, “ommaviy ma‘daniyat”ni targ‘ibotiga qaratilmagan malumotlarni olishga xalqni, eng asosiysi o‘sib kelayotgan yoshlar va bolalarni o‘rgatishimiz lozim.

Kalit so‘zlar: “ommaviy madaniyat”, yoshlar madaniyati, facebook, instagram, TikTok, YouTube, jinoyat kodeksi, XIX bob, XXbob.

Hozirgi kunda tez suratlarda ommalishib borayotgan internet va undagi ijtimoiy tarmoqlardan yoshlarga to‘g‘ri foydalanishni o‘qitish va o‘rgatishda bog‘cha, maktab, oliy ta‘lim muassasalari va jamoatning o‘rni juda katta bo‘lib, targ‘ibot va tashviqot ishlarini ayanan ulardan boshlash lozim. Sababi hozirda insonlar o‘smir yoshidan boshlab asosiy vaqtini uydan tashqarida yani yuqorida sanab o‘tilgan joylarda o‘tkazmoqda va sosiy tarbiya, va tushunchalarni shu joylarda olmoqda, bu esa o‘z navbatida bola tarbiyasidagi ota-ona o‘rnini susaytirmoqda. Bunga misol qilib o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilarini olsak maktabda kuniga o‘rtacha 6ta fandan dars o‘tiladi bu degani bola kunning deyarli yarimini maktabda o‘tkazadi (agar qo‘shimcha darslarga qatnashmasa) qolgan yarimini esa qoshimcha kurslar, sport to‘garaklariga qatnashish bilan, do‘stlari bilan yoki uyda o‘tkazadi, uyda obo‘lgan chog‘idaxam ota-onalari ishda bo‘lib farzandalarga e‘tibori kamayadi. Shunday ekan asosiy etiborni aynan maktab yoshidagi va undan kattaroq bo‘lgan yoshdagi kelajak avlodga qaratishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun esa joylarda hudud inspektorlari yilda bir marotaba o‘tkazadigan (ba‘azan umuman o‘tkazilmaydi) targ‘ibot ishlarini o‘zi kamlik qiladi. Shu saqbabdan joylarda kerakli fanlar ayniqsa ijtimoiy tarmoqdan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatuvchi, ommaviy madaniyatga alohida urg‘u berilgan fanlarni joriy qilish lozim deb topdik bunga sabab esa hozirda yoshlarning o‘zini tutishida, odobida va xattoki kiyinishida o‘z aksini topayotgan ommaviy madaniyat ta‘siri.



Fikirimiz isboti sifatida bazi yoshlarning, kiyinish, so‘zlashish odobi, jamoat joylarida o‘zini tutishi, kattalarga nisbatan xurmatsizligini keltirib o‘tishimiz lozim. Yoshlarning bunday tarbiya olishiga esa asosan ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan chet e‘l video roliklari, seriyallar va filmlar sababchi ekanligi hammaga ayon. Yoshlarning fikrini buzayotgan omillarni bilganimizdan kegin ushbu omillarni qyerda ko‘rayotgani hammaga ayon bo‘lsada takidlab o‘tishni lozim deb topdik, va albatta bular ijtimoiy tarmoqlar jumladan YouTube, FaceBook, Instagram, Telegram va h.k.lar shular jumlasidandir. Ushbu tarmoqlarda tarqatilayotgan malumotlar video va foto materiallar yoshlarning ongiga singib bormoqda va hayotda o‘z aksini topmoqda.

Statistika malumotiga ko‘ra

Eng ko‘p Instagramdan foydalanuvchilarga ega bo‘lgan (Hindiston, A.Q.SH, Braziliya, Indoneziya va Rossiya) davlatlarida jami 614 mln. foydalanuvchilar mavjud. Dunyo miqiyosda esa 1.3 mlrd. inson ushbu tarmoqdan xar-hil maqsatda foydalanib kelmoqda[1].

FaceBook dan foydalanuvchilar soni kuniga 1.98 mlrd.ni tashkil qiladi[2].

TikTok foydalanuvchilari soni esa 4.1mlrd. atrofida hisoblanmoqda[3].

YouTube ijtimoiy tarmog‘i esa oyiga ortacha 2.49mlrd foydalanuvchisiga ega[4].

Bunday ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar soniga teng xar-xil madaniyat mavjud bo‘lib ularning hammasi ham bizning mintalitetimizga, urf-odatlarimizga to‘g‘ri kelmasligi hech kimga sir emas, ushbu masala yuzasidan Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Abduganiyevich Karimov o‘zining “Yuksak manaviyat-yengilmas kuch” nomli kitobida shunday yozgan edilar: “Ayni payitda hayot haqiqati shuni ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki hil maqsadda-ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin”. Manaviyati hali to‘liqshakillanib ulgurmagan, urf-odatlarini, madaniyat va o‘zligini hali to‘liq anglab yetmagan yoshlar esa bunday narsalarni tushunib-tushunmay “ularga”- yani yevropa mamlakatlariga taqlit qilishiularga o‘xshamoqchi bo‘lishi mutloq notog‘ri deb hisoblaymiz, vaholanki o‘zimizdanham o‘rnak olishga arzigulik kishilar o‘tmishimizda ham hozirgi kunda ham yetarlicha topiladi. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun esa o‘zlarining qurollarini o‘ziga qarshi ishlatishimiz kerak, yani ular “Propaganda” va “Piar” qilib maqtayotgan va dunyoga jar solayotgan manaviyatiga qarshi, o‘z milliyligimizni eslatib madaniyatimizni jaxonga ovoza qilishga qodir yoshlarni tabiyalashimiz lozim. Bunga esa yuqorida ta‘kitlaganimizdek o‘sib



kelayotgan yoshlarni va bolalarni kerak bo'lsa go'daklikdan vatanga sevgi va sadoqat ruhida tarbiyalashimiz shart.

Ushbu masala bo'yicha Ajiniyez nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti magistranti Turkenbayeva D.E o'tkazgan "Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida qanday o'rin tutadi?" nomli so'rovnomasi natijalari bilan o'zining "Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviyatiga ta'siri" nomli maqolasida ulashgan bo'lib, unga ko'ra 110dan ortiq kishi ushbu so'rovnomaga o'z munosabatini bildirgan, ulardan 26.9% do'stlar ortirish va manfaatli tanishuvlarga yordam beradi degan bolishsa, o'z fikrini erkin bildirish imkoniyatini beradi deganlar 20.2% tashkil qiladi, yoshlar tarbiyasi va odob-axloqiga salbiy ta'sir qiladi deganlar esa 26.9% va bekorchilikdan boshqa narsa emas deguvchilar 17.9% tashkil qiladi[5]. Ushbu so'rovnoma natijalaridan ko'rinib turibiki ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilar soni yurtimizda ko'paygani sari, uning salbiy oqibatlarini anglayotganlar safi ham kengaymoqda. Bundan tashqari internet ve ijtimoiy tarmoqlardan har-hil maqsatda ezgulik (fikir almashish, yangiliklardan bohobar bo'lish, do'stlar ortirish, biznes ravnaqi uchun foydalanish) va yovuzlik (qonunga qarshi chiqish, halqda norozilik kayfiyatini uyg'otish, narko'tik va psixotrop vositalar propogandasi, jinoyat sodir qilishga moyillikni uyg'otuvchi axborotlar) foydalanish mumkin va biz bu ikki yo'nalishdan, ikkinchisiga, yani yovuzlik yolida foydalanilishi mumkin bo'lgan taraflariga etibor qaratib, ko'proq yoryishga qaror qildik, chunonchi halqni boxabar qilish, ularni ogohlikga chaqirish biz ilm ahlining vazifasi deb hisoblaymiz.

Bu mavzuni yoritish uchun nazarimizni yevropa hududiga qaratishimiz shart emas, vaholanki ijtimoiy tarmoqlardan insonlarning diniy qarashlaridan kelib chiqib urshga jalb qiluvchi qurol sifatida foydalanilgan va buning oqibatida ko'plab yurtdoshlarimiz shu oqim tasirida Suriya va Afg'oniston davlatlarida sodir bo'lgan davlat to'ntarilishiga qaratilgan urushlarda ishtirok etishgan. Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy tasirlaridan yana biri narko'tik va psixotrop maddalari propogandasi va ularnin tarqatilishi (oldi-sotdi) ishlari bo'lib bu haqda jinoyat ko'deksida XIX bob 270-276 moddalarda ta'qiq va cheklovlar, va qonun buzarlarga qo'llaniladigan jazolar ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining XX bob Axborot Texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar haqida bo'lib unda axborot texnologiyalaridan buzg'unchilik va buzg'unchi dasturlar yaratish, yolg'on axborot tarqatish, o'zganing mulkiga va qonun bilan himoyalangan manfa'atlariga taxdid qilish yoki zarar yetkazishda foydalanilgan hollarda qo'llaniladigan jazolar korsatib o'tilgan.



Ko‘rinib turibdiki internet, axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va messendjerlardan g‘arazli niyatlarda foydalanib kelayotgan kimsalar afsuski yoq emas va ulardan o‘zimizni va kelajak avlodni himoya qilishimiz o‘zimizning q‘olimizda, davlat tomonidan esa kerakli qonunlar joriy qilinib ularga asosan qonunbuzarlarga nisbatan jazolar qo‘llanib kelinmoqda. Bunga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin masalan:

1. 70 yoshlik otahon “o‘piy” giyoxvandlik moddasini sotgan vaqtida qo‘lga olingan va Jizzax viloyati sudi tomonidan Jinoyat ko‘deksining 273 moddasi 5 qismi bilan Jinoyat ko‘deksining 57 moddasini qollab uzul-kesil 6yil 2 oy ozdlikdan maxrum qilish jazosi tayinlandi deb habar beradi jurnalist Madina Ahmedova MY5 telekanali Markaziy studiyasiga bergan o‘z lavhasida[6].

2. 2022 yil oktyabr oyida DXX Toshkent shaxar bo‘yicha boshqarmasi xodimlari tomonidan shaxar Ichki Ishlar Bosh Boshqarmasi bilan hamkorlikda o‘tkazga tezkor qidiruv tadbirlari natijasida Yunusobot tumanida yashovchi 1998 yilda tug‘ilgan fuqaroni do‘pposlagan 2001, 2003, 2005 yillarda tug‘ilgan uch nafar fuqaro qo‘lga olinib tergo‘v jarayonida jabirlanuvchi va do‘pposlaganlarning barchasi telegramdagi giyoxvandlik vositalarini sotuvchi kanal a‘zolari ekanligi aniqlangan. Kaltaklangan fuqaro esa kanal administratori topshirig‘iga ko‘ra oldin yashirib ketilgan joydan narkotik moddasini olib, uni kichik qisimlarga bo‘lib haridorlarga yetkazish o‘rniga ushbu moddalarni boshqa kimsalarga sotish bilan shug‘ullangan, kanal administrtrori esa uni yuqorida ko‘rsatilgan uch nafar fuqaro orqali jazolagan, bu jarayon keginchalik amalga oshirilganini isbotlash uchun videoga olingan va kanal administratoriga yuborilgan, u esa o‘z navbatida yonlangan zo‘ravonlarga 300-500 aqsh do‘llari miqdorida haq to‘lagan[7].

Shunday bo‘lishiga qaramay ijtimoiy tarmoqlardan vos kechibham bo‘lmaydi, sababi “tanganing ikki tarafi bor” deyishganidek ushbu tarmoqlarning foydali tomonlari ham mavjud, masalan dunyoda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalardan xardor bo‘lish, uzoqda bo‘lgan tanishlar va qarindoshlar bilan aloqa qilish, chet-eldan biznes uchun xamkor topish va oldi-sotti masalalarini hal qilish shular jumlasidandir, tabiiyki ijtimoiy tarmoqlarni butkul yoq qilish yoki umuman man etish ham salbiy natijalarga olib kelishi turgan gap, shunday ekan undan foydalanishni endi boshlayotgan yoshlarga ijtimoiy tarmoqdan qanday to‘g‘ri foydalanish mumkin ekanligini ko‘rsatish har birimizning, avvalo ularning tarbiya, axloq va ilmiga javobgar bo‘lagan shaxslar yani ota-ona, qarindoshlar va oqituvchilarning zimmasida.



Buning uchun maqola avvalida aytib o'tilgan fanlarni joriy qilib, joylarda (bo'g'cha, maktab va oliy ta'lim muassasalarida) ko'proq targ'ibot ishlarini olib borish va kerak bo'lsa ma'sullar tayinlanib nazorat o'rnatilishi lozim. Bunday choralar taklif qilinishiga sabab esa ko'rib chiqilayodagan mavazuning dolzarbligi va uning oqibatlari juda ayanchli bo'lishi mumkinligidir.

Xulosa:

Xulosa ornida shuni takitlab o'tamizki endigina o'zligini taniiyotgan bola albatta doyim ko'rip turgan insonlaridan yani ota-ona, aka va opalaridan o'rnak oladi shunday ekan, har bir kishi avvalo o'zini tarbiya qilmog'i lozim. Bola oldida telefon yoki kamyuterdan kamroq foydalanib kitob o'qish bilan shug'ullanilsa u ham ulg'aygani sari kitobaga bilimga qiziqishi ortib boradi, har holda kasalni davolagandan uni oldini olish ancha osonroq degan fikirdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://blog.skillfactory.ru/auditoriya-soczialnyh-setej-i-messendzherov-v-2022-godu/>
2. <https://www.websiterating.com/ru/research/facebook-statistics/#chapter-1>
3. <https://www.websiterating.com/ru/research/tiktok-statistics/>
4. <https://inclient.ru/youtube-stats/>
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/ijtimoiy-tarmoqlarning-yoshlar-manaviyatiga-tasiri/viewer>
6. <https://t.me/markaziytv/12022>
7. <https://www.youtube.com/watch?v=T241o9JZbnA>